

**O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi huzuridagi
Jamoatchilik kengashi yig'ilishining
BAYONI**

2026-yil 8-aprel

1-son

Toshkent shahri

Raislik qildi: A. Ayubjonov – Jamoatchilik kengashi raisi.

Qatnashdilar: Jamoatchilik kengashi a'zolari, Milliy statistika qo'mitasi raisi o'rinbosari va tegishli tarmoq boshqarma va bo'lim boshliqlari.

KUN TARTIBI:

I. 2026-yil I chorak yakuni bo'yicha bajarilgan ishlar to'g'risida ma'lumot;

II. Aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbiri yuzasidan hisobot;

III. Milliy statistika qo'mitasi faoliyatida korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida olib borilayotgan ishlar holati tahlili;

IV. Milliy statistika qo'mitasiga jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan va ko'rib chiqilgan murojaatlar bo'yicha IV chorak yakuni bo'yicha bajarilgan ishlar.

(A. Ayubjonov, Z. Tojiyeva, K. Ismoilova, U. Abdurasulov)

Milliy statistika qo'mitasi huzuridagi Jamoatchilik kengashi (keyingi o'rinlarda Jamoatchilik kengashi) raisi A. Ayubjonov yig'ilishni ochib berib, kun tartibidagi masalalar bilan ishtirokchilarni tanishtirdi.

I. 2026-yil I chorak yakuni bo'yicha bajarilgan ishlar to'g'risida rais o'rinbosari Z. Ziyayevning hisoboti eshitildi:

2026- yilning yanvar-mart oylarida jami **865 ta** statistika ishlari belgilangan muddatlarda va to'liq hajmda bajarildi, shundan **357 tasi** Milliy statistika qo'mitasi va uning organlari tomonidan, **229 tasi** rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari tomonidan va **279 tasi** boshqa vazirlik, idora va tashkilotlar tomonidan bajarildi.

Milliy statistika qo'mitasi tomonidan, iqtisodiyot sohalari hamda tarmoqlari rivojlanishi maqsadli kompleks dasturlari monitoringi uchun doimiy ravishda miqdoriy ko'rsatkichlar shakllantirib borildi, hududlar hamda iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishi holatini kompleks tavsiflovchi tahliliy-statistika ma'lumotlari har oyda Hukumatga taqdim etib borildi.

2025-yilning yanvar-dekabr davri uchun O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining dastlabki yakunlari bo'yicha statistika ma'lumotlari tayyorlanib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Markaziy bank hamda boshqa vazirlik va idoralarga taqdim etildi.

Statistika dasturiga muvofiq bajarilgan ishlar natijalariga ko'ra shakllantirilgan ochiq statistika ma'lumotlari, axborotnomalar, to'plamlar, press-relizlar ko'rinishida hamda ommaviy axborot vositalari, rasmiy veb-saytlar va ijtimoiy tarmoqlar orqali muntazam ravishda milliy va xorijiy foydalanuvchilar e'tiboriga yetkazib berildi.

Xususan, ijtimoiy tarmoqlardagi qo'mitaning rasmiy Telegram kanalida **310 ta**, Facebook sahifasida **104 ta** va Instagram sahifasida **75 ta** yangiliklar e'lon qilindi.

Shuningdek, **24 ta** infografika roliklari hamda statistika faoliyatiga oid **409 ta** lavhalar "O'zbekiston 24" telekanalida doimiy tarzda efirga uzatildi va "Yangi O'zbekiston" hamda boshqa nashrlarda ham **5 ta** materiallar chop etildi.

Xalqaro statistika amaliyotini inobatga olgan holda, statistika sohasining turli yo'nalishlari bo'yicha 2026-yil yanvar-mart oylarida **2 ta** yangi uslubiy qo'llanma ishlab chiqildi.

Ochiq ma'lumotlar portali faoliyatini takomillashtirish, ma'lumotlar sifatini oshirish va ko'lamini kengaytirish borasida amalga oshirilgan ishlar natijasida, portalda e'lon qilinayotgan ma'lumotlar to'plamlari soni **13000 dan** oshdi.

Jumladan, Milliy statistika qo'mitasi tomonidan portalda e'lon qilinayotgan statistika ma'lumotlari to'plamlari soni **10 430 tani** tashkil qildi.

Xalqaro tashkilotlar bilan sohani rivojlantirish, ilg'or tajribalar va zamonaviy uslubiy tavsiyalarni amaliyotga joriy etish yuzasidan yaqindan hamkorlik hamda mamlakat ko'rsatkichlarini xalqaro axborot bazalarida aks ettirish yuzasidan axborot almashinuvi aloqalari yo'lga qo'yildi.

2026-yilning yanvar-mart oylarida xalqaro tashkilotlarning **11 ta** savolnomalari, jumladan, BMT Statistika bo'limining **2 ta**, YUNESKO statistika institutining **3 ta**, MDH Davlatlararo Statistika qo'mitasining **2 ta** va boshqa xalqaro tashkilotlarning **4 ta** savolnomalari to'ldirilib, taqdim etildi.

Bundan tashqari, **4 ta** xalqaro ma'lumotlar bazalaridagi, xususan, XVJning kengaytirilgan Ma'lumotlarni tarqatishning umumiy tizimi doirasida, MDH va "COMTRADE" ma'lumotlar bazalarida O'zbekistonning statistika ko'rsatkichlari o'z vaqtida yangilandi.

Jumladan, tovarlar savdosi bo'yicha BMTning "COMTRADE" axborot bazasida **42 673 ta** tovar turlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi ma'lumotlarini har oyda yangilab borilishi ta'minlandi.

XVJning kengaytirilgan Ma'lumotlarni tarqatishning umumiy tizimi (e-GDDS) doirasida **422 ta** indikator bo'yicha ma'lumotlar muntazam yangilab borilmoqda.

Bundan tashqari, XVJning kengaytirilgan Ma'lumotlarni tarqatishning umumiy tizimidan (e-GDDS) Ma'lumotlarni tarqatishning maxsus standartiga (SDDS) o'tish yuzasidan zarur tadbirlar amalga oshirilmoqda.

II. Aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbiriga tayyorgarlik ko'rish, uni o'tkazish va ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonlari bo'yicha Ro'yxatga olish jarayonlarini tashkil etish va o'tkazish boshqarmasi boshlig'i Qambarov Jaxongir Xoshimjonovich ma'lumot berdi.

O'zbekiston Respublikasining "Aholini ro'yxatga olish to'g'risida"gi Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazish to'g'risida" PF-173-son Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 7-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida" 629-son Qarorida ijrosiga muvofiq aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbiriga tayyorgarlik ko'rish, uni o'tkazish va ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonlari bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

2026-yilning 5-13-yanvar kunlari respublika hududlarida faoliyat yuritayotgan 50 mingdan ortiq mahalla yettiligi xodimlari yo'nalishlar bo'yicha kichik guruhlariga bo'lingan holda 3-bosqichda amaliy o'qitish ishlari o'tkazildi. O'qitish davomida ro'yxatga olish ishlarida ishtirok etuvchi shaxslarni o'qitish uchun hududiy oliy ta'lim muassasalaridan 5 nafardan jami 70 nafar yuqori malakali psixolog professor o'qituvchilar tanlab olinib o'qitishda ishtirok etishdi.

O'z navbatida nazoratchilar va ro'yxatga oluvchilar uchun o'quv-uslubiy materiallar takomillashtirilib, joylarga o'z vaqtida yetkazildi, hududiy boshqarmalar orqali mahalla yettiligi xodimlarini zarur jihozlar bilan ta'minlash ishlari amalga oshirildi, jumladan 37 ming dona maxsus sumkalar va ro'yxatga olish bo'yicha qo'llanmalar hamda 52 mingga yaqin QR -kodli identifikatsiya bedjklari tayyorlanib, joylarga tarqatildi.

Shuningdek onlayn ro'yxatdan o'tish davri mobaynida Oliy ta'lim muassasalaridan ro'yxatga olish jarayonida volontyor sifatida jalb qilinadigan talabalar, vazirlik va idoralar, ustav fondida davlat ulushi 50 foiz va undan ko'p bo'lgan korxonalarining xodimlari onlayn ro'yxatdan o'tish bo'yicha o'qitildi. Bundan tashqari vazirlik va idoralar census.stat.uz platformasidan onlayn ro'yxatdan o'tishlari uchun maxsus tayyorlangan 35 nafar trenerlar tomonidan muntazam amaliy yordam ko'rsatildi.

2026-yilning 15–31-yanvar kunlari aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olishning onlayn bosqichi bo'lib o'tdi. Ushbu bosqichni sifatli o'tkazishni ta'minlash maqsadida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatdan o'tkazish imkonini beruvchi <https://census.stat.uz> manzilidagi ro'yxatga olish axborot tizimi ishlab chiqilib, belgilangan tartibda amaliyotga joriy etildi. Shuningdek ro'yxatga olish ishlarining belgilangan muddatlarda va sifatli amalga oshirilishi ustidan doimiy hamda kunlik nazoratni ta'minlash maqsadida <https://monitoring-dev.census-stat.uz/dashboard> manzilida maxsus monitoring axborot tizimi ishlab chiqildi. Shu orqali onlayn ro'yxatga olish jarayonida ma'lumotlarning dastlabki to'liqligi, mantiqiy uyg'unligi va dublikat holatlarini aniqlash bo'yicha nazorat tadbirlari amalga oshirildi.

Respublika bo'yicha 34980 dan ortiq vazirlik, idora va tashkilotlar rahbarlari 2026-yil 15-31-yanvar kunlari davomida o'z tizimida faoliyat olib borayotgan barcha xodimlarning internet tarmog'i orqali ro'yxatdan o'tishlarini faol tashkil etib kunlik hisobot berib borishdi.

Shuningdek 2026-yil 15-yanvardan 28-fevralgacha bo'lgan muddatda fermer xo'jaliklari va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalar hamda tashkilotlar 6-shakl savolnomasini belgilangan tartibda to'ldirib, estat orqali ma'lumotlarni yuborish sifatli tashkil etildi, kelib tushgan hisobotlar o'rnatilgan mantaqiy nazorat orqali muntazam tekshirib borildi.

Onlayn bosqich yakunlari bo'yicha respublikadagi 7,6 mln xonadondan 6,2 mln tasida (82,3 foiz) yashovchi 30,4 mln nafardan ortiq aholi ro'yxatdan o'tdi va 148 ming ta yuridik shaxs tomonidan qishloq xo'jaligi faoliyati bo'yicha tegishli savolnomalar taqdim etildi.

2026-yil 4-28-fevral kunlari "maxalla yettiligi" xodimlari tomonidan uyma-uy yurib ro'yxatga olish ishlari to'liq yakunlandi va planshet qurilmalari orqali ro'yxatga olish ishlarini respondentlar yashaydigan (vaqtincha bo'lib turgan) turar joy va noturar joylarga, binolarga tashrif buyurgan holda uyma-uy yurib so'rov o'tkazish orqali sifatli o'tkazilishi to'liq ta'minlandi. Ikkinchi bosqich yakunlari bo'yicha 2026-yil 28-fevral holatiga ko'ra dastlabki ma'lumotlarga

asosan respublika bo'yicha tashkiliy rejada belgilangan hamda GIS-bazada geografik koordinatalari aks ettirilgan manzillar to'liq ro'yxatga olindi.

Aholi o'rtasida ro'yxatga olish tadbirining ahamiyatini keng tushuntirish va ishtirok darajasini oshirish maqsadida axborot-tushuntirish ishlari tizimli ravishda tashkil etildi va muvofiqlashtirildi.

Targ'ibot ishlarining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida ommaviy axborot vositalari va raqamli mediada uzluksiz axborot qamrovi ta'minlandi. Mahalliy va xorijiy ommaviy axborot vositalarida ro'yxatga olish tadbiriga oid 20 mingga yaqin materiallar e'lon qilindi. Respublika telekanallari orqali 250 ga yaqin maxsus lavha va reportajlar efirga uzatildi. Xususan internet-nashrlar, ijtimoiy tarmoqlardagi keng auditoriyali sahifalar va boshqa OAVlarda 17 mingdan ziyod materiallar, bosma nashrlarda 200 dan ortiq maqolalar chop etildi, radiokanallarda 250 dan ziyod eshittirishlar efirga uzatildi.

Shu bilan birga, aholi gavjum bo'lgan hududlarda targ'ibot samaradorligini oshirish maqsadida 750 ta bozor, 304 ta oliy ta'lim muassasasi, 25 ta metro bekati, 1747 ta jamoat transporti vositasi va bekatlari, 86 ta vokzal, 28 ta aeroport, 1279 ta savdo markazlari va 16887 ta davlat tashkilotlarida ro'yxatga olish tadbirlarining plakatlari o'rnalildi, roliklari namoyish etildi. Shuningdek yurtimizning 498ta nuqtasida asosiy targ'ibot bannerlari o'rnatildi, 404 nuqtadagi LED-monitorlar orqali videomateriallar namoyish etildi.

Olib borilgan targ'ibot ishlari natijasida aholining ro'yxatga olish jarayonlari bo'yicha xabardorligi oshirildi, faol ishtirokini ta'minlashga erishildi.

2026-yil yil mart oyida ro'yxatga olish natijalarining aniqligi va to'liqligini baholash maqsadida ro'yxatga olishdan keyingi nazorat kuzatuvini (PES) o'tkazish bo'yicha kompleks tayyorgarlik ishlari amalga oshirildi. PES tanlanma kuzatuv usuli asosida tashkil etildi. Tanlanmani shakllantirish O'zbekiston Respublikasi Kadastr agentligi hamda Milliy statistika qo'mitasi tomonidan hamkorlikda ishlab chiqilgan, turar joy obyektlarining GIS-koordinatalariga asoslangan mustaqil geoaxborot ma'lumotlar bazasi orqali amalga oshirildi.

Nazorat kuzatuvini o'tkazish konsepsiyasi va metodologiyasi FAO hamda YUNFPA xalqaro tashkilotlari ekspertlari ishtirokida kelishilgan holda ishlab chiqildi. Shuningdek, tanlanmani shakllantirish va kuzatuvni tashkil etish jarayonlarida xalqaro ekspertlar ishtirok etdi.

Mart oyining ikkinchi yarmidan boshlab tanlanma asosida uy-joy manzillarida nazorat kuzatuvini o'tkazildi. Nazorat kuzatuvini natijalari planshet qurilmalari orqali elektron tizimga kiritilib, markazlashgan bazaga yuklab borildi. Mazkur kuzatuv doirasida tanlanmaga tushgan 15 000 ta uy-joy manzilida joylashgan xonadonlarda qishloq xo'jaligi nazorat kuzatuvini savolnomasi asosida

qayta ro'yxatga olish ishlari amalga oshirildi. GIS asosida tasodifiy tanlab olingan 15 mingta lokatsiya nuqtalari bo'yicha ro'yxatga olishdan keyingi kuzatuv doirasida jami 15 736 ta uy xo'jaligida tanlanma kuzatuv o'tkazildi.

Hozirgi kunda Ro'yxatga olish jarayonlarini tashkil etish va o'tkazish boshqarmasi tomonidan birlamchi ma'lumotlarni qabul qilish va markazlashgan bazaga jamlash ishlari yakunlanib, ma'lumotlarning to'liqligi va mantiqiy muvofiqligini tekshirish (validatsiya) jarayonlari amalga oshirilmoqda.

Bunda dublikat yozuvlar va noto'g'ri kiritilgan ma'lumotlarga aniqlik kiritish, shuningdek avtomatlashtirilgan va qo'lda tekshirish orqali xatoliklarni bartaraf etish, ma'lumotlarni klassifikatsiya qilish, kodlash va agregatlash ishlari bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, hududiy boshqarmalar va vazirlik hamda idoralardan taqdim etilgan jami 20 ga yaqin ma'lumotlar bazalari yagona standart struktura asosida jamlanib, integratsiya qilindi hamda ma'lumotlarni chuqur tahlil qilish uchun alohida ma'lumotlar strukturasi ishlab chiqilmoqda.

III. Milliy statistika qo'mitasi faoliyatida korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida olib borilayotgan ishlar holati tahlili.

Milliy statistika qo'mitasida 2026-yilning I choragida korrupsiyani oldini olish va murosasiz muhitni shakllantirish bo'yicha izchil ishlar amalga oshirildi.

Markaziy apparat va hududiy organlarda 150 ga yaqin seminar-treninglar o'tkazildi. Mazkur seminarlar aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirlari targ'ibotlariga qo'shib olib borildi. Jumladan, 1500 ga yaqin tizim xodimlari, 10 mingdan ortiq boshqa vazirliklar va tashkilotlar xodimlari huquqiy targ'ibotlar va korrupsiyaga qarshi kurashish yuzasidan o'tkazilgan targ'ibotlarda ishtirok etdilar.

Ushbu chorak davomida markaziy apparatda 1 ta yillik ish reja, 2 ta nazorat reja ishlab chiqildi, hududlarda 10 ga yaqin yillik nazorat rejalar va dasturlar ishlab chiqildi.

Mazkur davr mobaynida ommaviy axborot vositalaridagi huquqiy targ'ibotlarda televideniye va radiolarda ko'plab chiqishlar qilindi.

2026-yilda manfaatlar to'qnashuvini boshqarish doirasida 1456 ta xodimdan, jumladan, 1382 ta yillik deklaratsiya 15 yanvarga qadar, 43 ta chorak davomida ishga qabul qilingan xodimlardan 31 ta boshqa lavozimga o'tgan xodimlardan ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida deklaratsiyalar olindi: markaziy apparatda va hududiy tizimlarda holatlar aniqlanmadi.

Shartnomalarda korrupsiyaga qarshi bandlar mustahkamlandi, qoidabuzarliklar aniqlanmadi. Chorak davomida 712 ta murojaat kelib tushib, ularning birortasi korrupsiyaga oid bo'lmadi.

Ishga qabul qilish jarayonlari ochiq tanlov orqali o'tkazilib, 1500 dan ortiq xodim targ'ibot tadbirlarida, yangi qabul qilingan 60 dan ortiq xodimlar esa umumiy kurslarda qatnashdi, jumladan, tizim doirasida 25 ta xodim qayta tayyorlovlar doirasida korrupsiyaga qarshi kurashish mavzusidagi darslarda ishtirok etdilar. 500 dan ortiq targ'ibot materiallari tarqatildi.

Tizimda bir nechta sohalar inson omilini kamaytirish maqsadida raqamlashtirildi. Shu o'rinda, aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirlarini o'tkazishda census.stat.uz veb-sayti va mobil ilovalari yaratildi. Shu jumladan mazkur tadbirda aholi murojaatlari bilan tezkor ishlashda "call-markaz" tashkil etildi 10 mingdan ortiq murojaatlar tezkor hal etildi.

Xulosa qilib aytganda, ichki nazorat bo'limi tizimdagi xavf-xatarlarni kamaytirish va murosasiz muhitni mustahkamlash bo'yicha rahbariyatga muntazam takliflar kiritmoqda.

IV. Milliy statistika qo'mitasiga jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan va ko'rib chiqilgan murojaatlar bo'yicha I chorak yakuni bo'yicha bajarilgan ishlar.

Milliy statistika qo'mitasida murojaatlar bilan ishlashni samarali tashkil etish va ijrosini nazorat qilish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirildi.

2026-yil yanvar-mart oylari bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyatlarda 6 ta sayyor qabul o'tkazilib, 73 nafardan ortiq fuqaro va tadbirkorlar ishtirok etdi. Murojaatlarning ko'pi joyida hal qilindi, 48 tasi ro'yxatga olinib, belgilangan tartibda javob berildi.

Milliy statistika qo'mitasiga 2026-yil yanvar-mart oylari bo'yicha jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan murojaatlarning jami soni 300 tani tashkil etib, ularning 185 (61,7%) nafar jismoniy shaxslar, 115 (38,3%) nafar yuridik shaxslar hissasiga to'g'ri keldi.

Shundan, 111 ta murojaat O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi orqali, 109 tasi elektron pochta orqali, 73 tasi og'zaki murojaatlar, 7 tasi to'g'ridan – to'g'ri kelib tushgan

Murojaatlar mazmuni:

- 130 tasi (43,3 %) – ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlar taqdim etish;
- 71 tasi (23,7 %) – Aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish jarayoni yuzasidan;
- 51 tasi (17 %) – amaliy yordam so'rash;
- 19 tasi (6,3 %) – Yagona davlat registri masalalari;
- 16 tasi (5,3 %) – statistik hisobotlarni taqdim etish;

- 4 tasi (1,3 %) – ish staji, ish haqi, tashkilot nomining o'zgarishi to'g'risidagi arxiv ma'lumotlari;
- 2 tasi (0,7%) taklif;
- 2 tasi (0,7%) shikoyat;
- 5 tasi (1,7 %) – boshqa masalalar.


Hududlar kesimida eng ko'p murojaatlar Toshkent shahridan (127 ta, 42,3 %) kelib tushdi.

Milliy statistika qo'mitasiga 2026-yil yanvar-mart oylari jami 300 ta murojaatdan 281 tasi ko'rib chiqildi, 19 tasiga tushuntirish berildi. Barcha murojaatlar rahbariyat nazoratida bo'lib, o'z vaqtida javoblar taqdim etildi.

Jamoatchilik kengashi qaror qiladi:

1. Taqdim etilgan hisobotlar ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. 2026-yil I chorak yakuni bo'yicha amalga oshirilgan ishlar, aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbiri yuzasidan olib borilgan tashkiliy hamda uslubiy ishlar, shuningdek, korrupsiyaning oldini olish va murojaatlar bilan ishlash holati yuzasidan taqdim etilgan axborotlar ma'lumot uchun qabul qilinsin.
3. Milliy statistika qo'mitasi tizimida statistika ishlarini belgilangan muddatlarda va sifatli amalga oshirish, aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish natijalari bo'yicha ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonlarini belgilangan tartibda davom ettirish hamda ushbu yo'nalishdagi ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha tegishli choralar ko'rib borilsin.
4. Xodimlar malakasini oshirish, ilg'or xorijiy tajribani o'rganish, o'quv kurslari va seminarlar tashkil etish, shuningdek, qo'mita faoliyati va amalga oshirilayotgan ishlarni rasmiy veb-sayt, ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlar orqali tizimli yoritib borish tavsiya etilsin.
5. Ijro intizomini mustahkamlash, korrupsiyaviy xavf-xatarlarning oldini olish, murojaatlar bilan ishlash samaradorligini oshirish hamda aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbiri yakunlari bilan bog'liq keyingi tashkiliy ishlarni muvofiqlashtirib borish tavsiya etilsin. Jamoatchilik kengashi kotibiga yig'ilish bayoni nusxasini belgilangan tartibda Milliy statistika qo'mitasiga taqdim etish yuklansin.

Jamoatchilik kengashi
mas'ul kotibi



U. Abdurasulov